



## TIL VA TAFAKKUR HAM ULARNING O'ZARO MUNOSABATLARI

*Muxanova M.G.*

*Toshkent davlat agrar universiteti  
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi*

**Tayanch so'zlar:** til, tafakkur, nutq, nutqiy faoliyat, til materiali, til unsurlari, umumiylik, xususiylik, og'zali nutq, yozma nutq.

**Ключевые слова:** язык, мышление, речь, речевая деятельность, языковой материал, языковые элементы, общность, специфика, устная речь, письменная речь.

**Key words:** language, thinking, speech, speech activity, language material, language elements, generality, specificity, oral speech, written speech.

O'zbek tili "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda har tomonlama topgan intellektual salohiyati yuqori bo'lgan yoshlarnitarbiyalash asosiy vazifa qilib belgilangan. Ayniqsa, oliy ta'lim talabalarining ma'naviy dunyoqarashini o'stirishga alohida e'tibor berilmoqda. Boisi, mamlakat taraqqiyoti bugungi avlodning komillik darajasi bilan belgilanadi. Bu o'rinda, Prezident SH.M. Mirziyoyevning quyidagi so'zlarini eslaymiz: "Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo'lgan o'zbek tili xalqimiz uchun milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli, bebaho ma'naviy boylik, buyuk qadriyatdir.

Kimda-kim o'zbek tilining bor latofatini, jozibasi va ta'sir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo'lsa, munisonalarimizning allalarini, ming yillik dostonlarimizni, o'lmas maqomlarimizni eshitsin, baxshi va hofizlarimizning sehrlil qo'shiqlariga quloq tutsin". Ma'lumki, til o'ziga xos ijtimoiy hodisa bo'lib, o'zining ichki qonunlariga binoan asta-sekin, yildan yilga, asrdan asrga o'zgarib, boyib, takomillashib boradi. Bu qonuniyatni inkor qilish milliy tillar ravnaqiga jiddiy putur yetkazadi. Sobiq ittifoq davrida milliy tilimiz – o'zbek tili juda ko'p o'zgarishlarni, "po'rtanalarni" boshdan kechirdi. Milliy tillarning o'ziga xos xususiyatlari inobatga olinmadi. Natijada milliy tillarga juda katta zarar yetkazildi. Bunga ishonch hosil qilish uchun birgina o'zbek tilining



boshiga tushgan “kulfat”larni sanab o‘tishning o‘zi kifoya. Birgina alifboning o‘zi bir necha marotaba almashtirildi...

Til uchun kurash, bu faqat tilning ichki hayotiga tegishli qoida, yo‘nalish va tartiblar uchun ,ularning aniqligi, tiniqligi, asoslanganligi uchun kurash emas. Til uchun kurash, bu- ayni vaqtda tilning jamiyatdagi o‘rni uchun ham kurashdir. Shuning uchun bo‘lsa, kerak, mustaqillik shabadalari esayotgan bir paytda o‘zbek tiliga davlat tili maqomini berish kun tartibiga qo‘yilgan eng muhim masala bo‘lib qoldi. 1989 yil 21 sentyabrda “Ozbek tiliga davlat maqomini berish haqida”gi qonun qabul qilindi. Shu davrdan boshlab har yili bu kunni til bayrami sifatida nishonlaymiz.

Mustaqillik sharofati bilan o‘zbek tili – davlat tiliga e‘tibor kuchaydi, ona tilimizning ijtimoiy mavqeyi kengaydi. O‘zbek tilining taraqqiyot va istiqboli to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilinib, bir qancha qarorlar qabul qilindi. 1993 yil 2 sentyabrda “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etishto‘g‘risida “ Qonun qabul qilinishi Vatanimizning ma‘naviy-ma‘rifiy hayotida jahonshumul ahamiyat kasb etdi.Yangi alifboga kiritilgan o‘zgartirishlar asosida “O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari”ishlab chiqildi va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 1995-yil 24-avgustda tasdiqlandi. Davr taqozosi bilan “Davlat tili haqida”gi Qonunga ham o‘zgartishlar kiritildi. 1995-yilning 21-dekabrida O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Davlat tili haqida”gi Qonuni e‘lon qilindi. Bu qonun 24 moddadan iborat bo‘lib, uning birinchi moddasida “Ozbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir”,deb yozib qo‘yilgan. Davlat tilini o‘rganish ,unga amal qilish tabiiy ehtiyoj va zaruratga,hatto, anglangan majburiyatga aylanib bormoqda. O‘zbek tilida to‘g‘ri, ifodali so‘zlash va yozish, ona tilimizning sofligi va boyligi to‘g‘risida tinmay g‘amxo‘rlik qilish, uning iste‘mol doirasini kengaytirib borish davlatimiz fuqarolarining burchi. Xususan, har bir yosh va o‘quvchitalaba o‘z ona tilidagi so‘z boyligini oshirish hamda til imkoniyatlaridan o‘rinli foydalanishga doimo harakat qilishi lozim.

So‘z fikr qurolidir, kishi qanchalik ko‘p so‘z bilsa, uning fikrlash doirasi, dunyoqarashi ham shunchalik keng bo‘ladi. Yoshlarga ta‘lim berishdan asosiy maqsad, barkamol avlod ongida fan asolarini puxta singdirish orqali ularni diyonatli, e‘tiqodli qilib o‘stirish, ijtimoiy hayotdagi har bir hodisaga ongli yondashish ruhida tarbiyalash, egallagan bilim va ko‘nikmalarini hayotga tatbiq etish qobiliyatini rivojlantirishdan iborat. Bu jihatdan, ayniqsa, ona tili va adabiyot darslari yosh avlodni jamiyatimiz olg‘a surayotgan yuksak g‘oyalar ruhida tarbiyalash vositasi hisoblanadi.

“O’qituvchi, ayniqsa, o’zbek tili va adabiyoti muallimi o’zining kelajak avlodni tarbiyalashda mas’ul ekanini yodidan chiqarmasligi kerak. O’qish va o’qitishning eng ilg’or shakllari va mazmuni, bizningcha, eng avvalo, adabiyot darslarida amalga oshmog’i lozim. Buning uchun esa birinchi navbatda, o’qituvchining o’zi darsda har bir mazmuni yangicha his etish quvvatiga ega bo’lmog’i, o’quvchisiga zamonaviy talablar darajasida tushuncha bermog’i lozim”.

Til va tafakkurning o’zaro munosabati tilshunosligimizdagi eng asosiy muammolardan biridir. Ma’lumki, til bo’lmasa, jamiyat a’zolari orasida ijtimoiy aloqa va munosabat ham, shu odamlar yashaydigan jamiyatning o’zi ham bo’lmas edi. Biz til vositasidagina bir-birimizning fikrimizni anglaymiz, kundalik ishlarimizni olib boramiz, narsa va hodisalarning mohiyatini chuqurroq bilib olamiz. Bu jarayon faqat tafakkur yordamidagina amalga oshiriladi. Inson hayoti tafakkursiz keshishi mumkin emas. U biror faoliyatni amalga oshirish uchun, avvalo, bu haqda fikr yuritadi. Buyum va hodisalarning muhim xususiyatlari, ular o’rtasidagi sababiy bog’lanish hamda qonuniy aloqalarni bilib oladi. Demak, til tafakkur bilan chambarchas bog’liq bo’lib, fikrni moddiylashtiradigan, reallashtiradigan, kishilarning fikr almashinishlarini ta’minlab beradigan quroldir. Til va tafakkur aynanbir hodisa emas. Tafakkur zohiriy olamning inson miyasida umumlashgan, til bilan ifodalangan in’ikosi. Til esa fikrni ifodalash usuli, uni qayd etib boshqa kishilarga, avlodlarga yetkazish vositasi. Boshqacha ayniqsa, til- tafakkurning borliq shakli.

Til va nutqni bir-biridan farqlash lozim. Til so’zlash vositasi, ya’ni nutq sifatida namoyon bo’lgandagina ma’lum vazifani bajaradi. Nutq til materiali, unsurlaridan tuziladi va nutqiy faoliyat natijasida yuzaga chiqadi. Demak, til materiallari faoliyat uchun xizmat qiladi. Til bilan nutqni qiyoslash orqali ularning quyidagi o’ziga xos xususiyatlarini ajratish mumkin:

1. Til aloqa materiali bo’lsa, nutq aloqa shaklidir.
2. Tilni xalq, millat yaratadi, nutqni esa har bir shaxs yaratadi.
3. Tilning hayoti xalq, millatning hayotiga bog’liq holda uzoq bo’ladi, nutqning hayoti esa qisqa, xususan, og’zaki nutq so’zlangan paytdagina mavjuddir. Ammo yozma nutq nisbatan uzoq davr saqlanishi mumkin.
4. Til nisbatan turg’un, barqaror bo’lsa, nutq doimo harakatda bo’lib, o’zgaruvchan hodisa sanaladi.
5. Tilning hajmi noaniq, nutqning hajmi esa aniq. U dialog, monolog, matn shaklida bo’lishi mumkin.

Demak, til bilan nutq umumiylik va xususiylik xususiyatlariga ega bo’lib, til nutqda yashaydi, nutq tilning namoyon bo’lishidir. Tilning ijtimoiy



vazifasi nutqiy faoliyatda, ya'ni nutq sifatida kishilar o'rtasida aloqa, fikrlash, so'zlashishni amalga oshirishda yaqqol ko'rinadi. Nutqiy faoliyat kishilarning bir-birlariga tushunarli bo'lgan til vositasida o'zaro fikr almashtirishi, nutqiy aloqaga kirishishlari-dir. Bu jarayon ikki shaklda amalga oshadi: o'g'zaki va yozma tarzda.

Og'zaki nutqning ikki turi mavjud: oddiy so'zlashuv nutqi va adabiy so'zlashuv nutqi. Oddiy so'zlashuv nutqi tabiiy nutq sifatida namoyon bo'lib, sheva ta'sirida bo'lgan kundalik so'zlashuv nutqining turli ko'rinishlaridan iborat. Adabiy so'zlashuv nutqi esa adabiy til me'yorlariga amal qilgan holda gapirishni taqozo qiladi.

Yozma nutq yozuv ta'sirida paydo bo'lgan nutq shaklidir. Nutqning bu shakli adabiy tilning imloviy, punktuatsion, uslubiy qonun-qoidalariga bo'ysunuvchi grafik shakldagi nutq shaklidir. Yozma nutqning mazmuniy bo'laklari, gaplar, ularning qismlari turli xil tinish belgilari orqali ajratib ko'rsatiladi. Yozma nutq og'zaki nutq kabi kishilar o'rtasida bevosita aloqa vositasi emas, u boshqa joyda va zamonda yashovchi kishilar bilan aloqa bog'lash vositasidir.

Yozma manbalar orqali biz o'tmish tariximizni o'rganamiz va bundan kelajak avlod foydalanishi mumkin. Nutqning bu shakllari turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Nutq ayrim shaxslarga tegishli bo'lishi (monologik), ikki kishi o'rtasida yuz berishi (dialogik) va bir necha shaxslar o'rtasida bo'lishi (polilogik) mumkin. Nutq ko'rinishlari ifoda maqsadi, qurilishi, hissiy-ta'siriy vositalari bilan farqlanadi. yozma nutq uslubi turlari (ilmiy, badiiy, publitsistik, rasmiy-idoraviy) bilan o'ziga xos nutq ko'rinishlarini yaratadi.

#### Adabiyotlar:

1. Rasulov R., Mirazizov A. O'zbek tili. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarining ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan guruhlar uchun o'quv qo'llanma. Toshkent: Fn va texnologiya, 2006.
2. Rafiyev A., G. Qurbonova. O'zbek tili . (Tibbiyot mutaxassislar uchun) O'quv qo'llanma . Toshkent:2008.
3. Qo'chqortoyev I., Rafiyev A. Kundalik muloqot so'zlashgichi. Разговорник повседневного общения. Toshkent. O'zbekiston. 1995.

#### РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada til va tafakkurning o'zaro munosabati, nutq jarayonidagi o'rni, yutuq va kamchiliklari haqida fikr yuritiladi.

#### РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматривается взаимосвязь языка и мышления, его роль в речевом процессе, его достижения и недостатки.

#### SUMMARY

This article discusses the relationship between language and thought, its role in the speech process, its achievements and shortcomings.